# Qaraqalpaqstan Respublikası statistika basqarması

| | | |
|---|---|---|
| **Ganiev Temirbay Turganbaevich** | Qaraqalpaqstan Respublikası statistika basqarmasınıń baslıǵı | |
| | Mánzil: | 230100, Nókis qalası, A.Dosnazarov kóshe jay |
| | Telefon: | 0(361) 222 79 00 |
| | E-mail: | statrk@exat.uz |
| | Qabıllaw kúnleri: | Dúyshembi-juma 11:00-12:00 |

| | | |
|---|---|---|
| **Bekmuratov Sipatdin Bekbosınovich** | Qaraqalpaqstan Respublikası statistika basqarması baslıǵınıń birinshi orınbasa | |
| | Mánzil: | 230100, Nókis qalası, A.Dosnazarov kóshesi |
| | T<br>Telefon: | 0(361) 222 70 53 |
| | E-mail: | statrk@exat.uz |
| | Qabıllaw kúnleri: | Dúyshembi-juma 11:00-12:00 |

<table>
<tr><td rowspan="5">Omarov Kamaladdin Tajibaevich</td><td colspan="2">Qaraqalpaqstan Respublikası statistika basqarması baslıǵınıń orınbasarı</td></tr>
<tr><td>Mánzil:</td><td>230100, Nókis qalası, A.Dosnazarov kóshesi</td></tr>
<tr><td>Telefon:</td><td>0(361) 222 71 59</td></tr>
<tr><td>E-mail:</td><td>statrk@exat.uz</td></tr>
<tr><td>Qabıllaw kúnleri:</td><td>Dúyshembi-juma 11:00-12:00</td></tr>
</table>

## Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig'i funksional vazifalari

1. Boshqarma faoliyatiga rahbarlik qiladi; boshqarmaning tarkibiy bo’linmalari to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlaydi; boshliq o’rinbosarlari va funksional bo’lim boshliqlarining javobgarlik darajasini belgilaydi; boshqarma xodimlariga nisbatan malakaviy talablarni belgilaydi va ularning mehnatini raqbatlantirish tizimini shakllantiradi, yuqori malaka uchun ustamalar belgilaydi; boshqarmaning smeta xarajatlarini belgilaydi va tasdiqlaydi; boshqarma xodimlari uchun meqnatga qaq to’lash yagona tarif setkasi bo’yicha belgilangan lavozim okladlari sxemasiga muvofiq shtat jadvalini tasdiqlaydi; zarur qolda O’zbekiston Respublikasi davlat statistika qo’mitasi bilan kelishilgan qolda boshqarma tuzilmasiga shtatdagi xodimlarning tasdiqlangan soni va statistika ishlarini amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag’lar doirasida o’zgartirishlar kiritadi; statistik ma'lumotlarni

yiqish va tahlil qilish, ma'lumotlarning ishonchliligini ekspertizadan o'tkazish, ularni nashrga tayyorlash bilan shuqullanadi; statistik hisob-kitobni amalga oshirish va olingan statistik ma'lumotlar asosida turli tahliliy sharqlar tayyorlashda ishtirok etadi; statistik kuzatuvlarning aloqida turlari bo'yicha elektron ma'lumotlar bazasini saqlashni va o'ziga biriktirilgan statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlarni yuritishni ta'minlaydi; o'z vakolatlari doirasida tuman va shaqar statistika bo'limlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi; o'ziga yuklangan vazifalarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari doirasida boshqa barcha zarur choralarni ko'radi; boshqarma nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatadi, amaldagi qonun qujjatlari va boshqarma nizomiga muvofiq boshqarma manfaatlarini himoya qiladi va uning mol-mulkini tasarruf etadi; boshqarmaning Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi, Maxsus qism, Kadrlar bo`limi, Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo`limi, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'limi, Yuridik xizmati, Dasturiy-texnik ta'minot va ma'lumotlarni saqlash markazi faoliyatini nazorat qiladi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig'i birinchi o`rinbosarining funksional vazifalari

1. -Boshqarma boshlig'i yo'qligi vaqtida boshqarma faoliyatiga vaqtincha raxbarlik qiladi;
2. -boshqarmaning barcha tarmoq, shaxar va tuman statistika bo'limlari tomonidan dasturlar bo'yicha bajariladigan statistika ishlari xajmlariga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi;

3. -viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Davlat dasturlarinig bajarilishi ustidan Davlat statistika kuzatuvlarini tashkil etadi;
4. -viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to’g’risidagi statistik ma'lumotlarini tayyorlash, ularni chop etish va belgilangan davlat organlariga yuborilishini nazorat qiladi;
5. -boshqarmada tashkil etilgan Komissiya yiqilishida davlat statistika ishlari dasturining sifatli va o’z vaktida bajarilishi, hisobot ko’rsatgichlarini tezkorligi, xaqqoniyligi va xolisligini ta'minlash masalalari, Davlat statistika organlari faoliyatiga doir boshqa masalalarni ko’rib chiqishi uchun tayyorlaydi;
6. -boshqarmaning barcha tarmoq va xududiy statistika bo’limlari xalq xo’jaligidan qo’shimcha mablag’ topishini (konsalting xizmatlari) nazoratini yuritadi
7. -biriktirilgan boshqarmaning tarmoq va shaxar, tuman statistika bo’limlari faoliyatini doimiy nazoratini yuritadi, ularning faoliyatini muvofiklashtiradi, mavjud vakant lavozimlarga xodimlarni tayyorlash va tayinlash bo’yicha boshqarma boshlig’iga takliflar kiritadi;
8. -biriktirilgan barcha bo’limlar faoliyatini xamda ulardagi statistik ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi, to’liqliligi, dolzarbligini nazorat qiladi va ta'minlaydi
9. -biriktirilgan tarmoq ma'lumotlarini qonuniyligini o’rganib, tegishli soxalar dasturlari va boshqa ma'lumotlarni tayyorlashda, muxokama yiqilishlarida ishtirok etish va imzolash vakolatlaridan foydalanadi va imzolagan ma'lumotlarning javobgarligini o’z zimmasiga oladi;
10. -biriktirilgan shaxar, tuman statistika bo’limlari moliya-xo’jalik faoliyatlarini nazorat qiladi va ularning qonuniyligini ta'minlash choralarini ko’radi;
11. -boshqarmada ko’rilayotgan ma'muriy jarimalarni imzolaydi xamda ularning qonuniyligini va belgilangan tartib asosida ijro etilishini ta'minlaydi;
12. Boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari: Statistika faoliyatini tashkil etish va yig'ma ishlar bo'limi, Investitsiya va qurilish statistikasi bo`limi, Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi, Narx statistikasi bo`limi, Sanoat statistikasi bo`limlari faoliyatini nazorat qiladi.
13.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi boshlig'i o`rinbosarining**

**funksional vazifalari**

1. -boshqarma, shaxar va tuman statistika bo’limlari tomonidan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan qo’llanilgan ma'muriy jarima summalarini o’z vaqtida undirilishini xamda o’z vaqtida to’lanmagan ma'muriy jarimalarni majburiy ijro etishlik uchun belgilangan tartibda sud ijrochilari departamentiga taqdim etishlarini doimiy nazoratini yuritadi;
2. -o’tkaziladigan tekshirishlarni faqat nazorat organlari faoliyatini Muvofiklashtiruvchi Respublika Kengashi tomonidan tasdiqlangan reja-jadval asosida tashkil etilishini qat'iy nazorat qiladi, rejadan tashkari tekshirishlar o’tkazmasligini hamda o’tkazilgan tekshirishilar samaradorligini oshirishni doimiy nazorat qilib boradi;
3. -biriktirilgan boshqarmaning tarmok va shaxar, tuman statistika bo’limlari faoliyatini doimiy nazoratini yuritadi, ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi, mavjud vakant lavozimlarga xodimlarni tayyorlash va tayinlash bo’yicha boshqarma boshlig’iga takliflar kiritadi;
4. -biriktirilgan barcha bo’lim faoliyatini xamda ulardagi statistik ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi, to’liqliligi, dolzarbligini nazorat qiladi va ta'minlaydi;
5. -biriktirilgan tarmoq ma'lumotlarini qonuniyligini o’rganib, tegishli sohalar dasturlari va boshqa ma'lumotlarni tayyorlashda, muhokama yiqilishlarida ishtirok etish va imzolash vakolatlaridan foydalanadi va imzolagan ma'lumotlarning javobgarligini o’z zimmasiga oladi;
6. -biriktirilgan shaxar, tuman statistika bo’limlari moliya-xo’jalik faoliyatlarini nazorat qiladi va ularning qonuniyligini ta'minlash choralarini ko’radi;
7. -boshqarmada tuzilayotgan konsalting shartnomalarini imzolaydi xamda ularning qononiyligini va belgilangan tartib asosida ijro etilishini ta'minlaydi;
8. Boshqarma boshlig`ining o`rinbosari: Turmush darajasi va ijtimoiy soha statistikasi bo`limi, Demografiya va mehnat statistikasi bo`limi, Xizmatlar sohasi statistikasi bo`limi, Tadbirkorlik va bank-moliya xizmatlari statistikasi bo`limi, Statistik registrlarni yuritish bo`limlari faoliyatini  nazorat qiladi.
9.